

**TOSHKENT XALQARO UNIVERSITETI HUZURIDAGI
IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AKTAMOV AKBAR ASLAN O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA
BOJXONA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent shahar – 2026 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Aktamov Akbar Aslan o'g'li

O'zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini
takomillashtirish..... 3

Актамов Акбар Аслан угли

Совершенствование таможенной практики в повышении бюджетных
поступлений в Узбекистане 29

Aktamov Akbar Aslan ugli

Improving Customs Practices to Increase Budget Revenues in Uzbekistan... 61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 67

**TOSHKENT XALQARO UNIVERSITETI HUZURIDAGI
IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AKTAMOV AKBAR ASLAN O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA
BOJXONA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahar – 2026 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.3.PhD/Iqt5714 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Norov Akmal Ruzimamatovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xusainov Shaykat Abdushukurovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Irgashev Anvar Farhodovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:


Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. DSc.03/2025 27.12.130.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «12» 09 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: +998 95 131-55-55, e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (59 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy Tel: +998 95 131-55-55, e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «21» 08 kuni tarqatildi.

(2026-yil «24» 07 dagi 51 raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

I.X. Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari
doktori, dotsent

D.A. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiy globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va xalqaro iqtisodiy aloqal chuqurlashuvi natijasida global savdo hajmlari so'nggi o'n yillikda izchil tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, Jahon savdo tashkiloti (JST) ma'lumotlariga ko'ra, 2013-2024-yillar oralig'ida jahon tovarlar savdosi hajmi qariyb 1,5 baravarga oshib, 2024-yilda 24 trillion AQSh dollaridan yuqori ko'rsatkichga yetdi.¹ Shu bilan birga, dunyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsulotida tashqi savdoning ulushi o'rtacha 55-60 foizni tashkil etib,² bojxona tizimining iqtisodiy jarayonlardagi strategik rolini yanada kuchaytirmoqda. Xalqaro amaliyotda ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda bojxona tushumlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 25-40 foizgacha yetayotgani qayd etilmoqda.³ Bu esa budjet tushumlarini oshirishda bojxona organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, xususan, bojxona amaliyotini takomillashtirish orqali barqarorlikni ta'minlash masalasini jahon miqyosida dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida ilgari surmoqda.

Xalqaro amaliyotida bojxona amaliyotini tashkil etish va uni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek bojxona amaliyotining xalqaro norma va standartlarini ishlab chiqish masalalari so'nggi yillarda ilmiy va amaliy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijalari bojxona amaliyotining eksport-import operatsiyalarida qonun hujjatlariga rioya etilish darajasini oshirishga xizmat qiluvchi muhim instrument ekanligini tasdiqlamoqda. Xususan, bojxona amaliyotining joriy etilishi soliq va boj to'lovchilar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ixtiyoriy ravishda qonunchilikka rioya qilish darajasini oshiradi. Xalqaro tajribaga ko'ra, bojxona amaliyotiga asoslangan nazorat mexanizmlarini joriy etgan davlatlarda budjetga tushadigan bojxona tushumlari o'rtacha 10-20 foizga oshgani, bojxona organlarining ma'muriy xarajatlari esa 15-25 foizga qisqargani qayd etilgan⁴. Yuqoridagi jihatlarni inobatga olgan holda, hozirgi davrda bojxona amaliyotining milliy tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni xalqaro me'yor va standartlarga muvofiqlashtirish, shuningdek bojxona amaliyotini modernizatsiya qilish orqali davlat budjeti daromadlarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat budjeti tushumlarini barqaror oshirish masalasi ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, tashqi savdo hajmlarining ortib borishi, iqtisodiyotning ochiqlik darajasining oshishi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi bojxona tizimining budjet daromadlarini shakllantirishdagi rolini yanada kuchaytirmoqda. Mazkur sharoitda bojxona ma'murchiligini takomillashtirish va bojxona amaliyotini joriy etish davlat

¹ Manba: https://www.wto.org/english/res_e/statistics_e/world_trade_statistics_e.htm - rasmiy sayt ma'lumotlari.

² Manba: <https://wits.worldbank.org/CountryProfile/en/WLD> - rasmiy sayt ma'lumotlari.

³ Manba: <https://data.worldbank.org/indicator/GC.TAX.IMPT.RV.ZS> - rasmiy sayt ma'lumotlari.

⁴ Manba: <https://data.worldbank.org/indicator/GC.TAX.IMPT.RV.ZS> - rasmiy sayt ma'lumotlari.

moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, risklarga asoslangan amaliyot mexanizmlarining qo'llanilishi bojxona organlari resurslaridan samarali foydalanish hamda ma'muriy xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlarda, jumladan «Yangi O'zbekiston - 2030» strategiyasida, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va budjet daromadlarining barqaror manbalarini kengaytirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan.⁵ Ushbu maqsadlarga erishishda bojxona amaliyotining milliy tizimini shakllantirish, uni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish hamda raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni⁶, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son qarori 2018 yil 29-iyundagi PQ-3818-son qarori⁷, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi PQ-3818-son «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi,⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 25 fevraldagi «Bojxona amaliyotini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori⁹, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 20 yanvardagi O'RQ-400-son «O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi,¹⁰ 2018 yil 18 oktyabrdagi O'RQ-502-son «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi¹¹ qarorlarida hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish va budjet tushumlarini oshirishning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishning ayrim jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan Zhu Weihua, Kazunari Igarashi, J.G.Cederquist, R.J.Corin, M.A.C.Dekker, S.Etalle, J.I.Hartog, G.Lenzini, Jae-Hyun Park, A.Smit, M.Porter, A.Marshal,

⁵ Manba: <https://strategy.gov.uz/> - rasmiy sayt ma'lumotlari.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son qarori 2018 yil 29-iyundagi PQ-3818-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3802363>.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son. <https://lex.uz/docs/3798523>.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 29.06.2018 yildagi PQ-3818-son. <https://lex.uz/docs/-3802363>.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 20 yanvardagi O'RQ-400-son «O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksini tasdiqlash to'g'risida» <https://lex.uz/docs/2876353>.

¹¹ O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabrdagi O'RQ-502-son. <https://lex.uz/docs/3975468>.

F.Hayek, I.Shumpetter, L.Erkardlar, F.Hayek, I.Shumpetter, L.Erkardlar, V.F.Saliychuk, Van Horn J.K., A.M.Годин, И.В.Подпорина, Л.Л.Сергеева, М.Дмитриев, Э.Добсон, Л.А.Дробозина, Г.В.Ершова, Н.П.Ефимова,¹² va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq etilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan I.G'.Pardayev, S.A.Alimbaev, S.Aripov, Sh.N.Boymuradov, R.A.Turapov, O.Olimjonov¹³ va boshqalarning ilmiy ishlarida budjet tushumlarini oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda bojxona amaliyoti va bojxona nazoratiga oid ayrim nazariy qarashlar yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida bojxona amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiluvchi moliyaviy-iqtisodiy asoslari, amaliy mexanizmlarini rivojlantirish masalalari yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan. Shuningdek, bojxona amaliyotida qo'llanilayotgan nazorat shakllarining moliyaviy samaradorligini baholash, bojxona amaliyotini risklarga asoslangan post-nazorat mexanizmi sifatida rivojlantirish hamda uning davlat budjeti daromadlarini oshirishga ta'sirini aniqlash bilan bog'liq ilmiy, nazariy va amaliy muammolar yagona tizim sifatida tadqiq qilinmagan. Bu holat bojxona amaliyotining moliya tizimidagi o'rnini aniq belgilash muhim instrumenti sifatida asoslash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur sharoitda O'zbekistonda bojxona amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan holda bojxona amaliyotini tashkil etish va ishlab chiqish, uni xalqaro moliyaviy va bojxona standartlari bilan uyg'unlashtirish obyektiv zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda. Bojxona amaliyotining samarali mexanizmlarini joriy etish tashqi savdo operatsiyalarida bojxona to'lovlarining to'liqligi va aniqligini ta'minlash, noqonuniy moliyaviy oqimlarni cheklash hamda budjet tushumlarini barqaror oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, bojxona amaliyotining

¹² Zhu Weihua (Division of Post-Entry Amaliyot, Investigation Bureau, PRC Customs). Post-Clearance Amaliyot System in PRC Customs. //Seminar on Risk Management and Post-Entry Amaliyot, Shenzhen, People's Republic of China. -June 7-10, 2005. - p.6., Kazunari Igarashi (World Customs Organization). Post-Clearance Amaliyot. // Seminar on Risk Management and Post-Entry Amaliyot, Shenzhen, People's Republic of China. - June 7-10, 2005. - p.2-7., Cederquist, J.G., Corin, R.J., Dekker, M.A.C., Etalle, S., Hartog, J.I., Lenzini G. Amaliyot-based compliance control. 2007 International Journal of Information Security, 6 (2-3). p. 133-151., Ван Хорн Дж.К. Основы управления финансами. - М.: Финансы и статистика, 1996. -365 с. Годин А.М, Подпорина И.В. Бюджет и бю-ная система Российской Федерации. -М.: Дашков и Ко, 2001. - 386 с. Государственные и территориальные финансы. /Под ред. Л.Л. Сергеева. - Калининград: Янтарный сказ, 2000. - 492 с. Дмитриев М. Бюджетная политика в современной России. 2-изд. - М.: Московский Центр Карнеги Добсон Э. Долг и инвестиции для субъектов Российской Федерации. - М.: ИЭПП, 2000. - 392с. Дробозина ЛА. Финансы. Денежное обращение и кредит. - М.: Банки и биржи, 2000. - 670 с. Ершова Г.В., Дмитриев М.Н. Местные финансы. Уч. пособие. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 341 с. Ефимова Н.П. Гос-ый фин-й контроль в реализации федеральных целевых программ. - М.: Медицина, 2000. - 198 с. Ефимова Н.П. Государственный финансовый контроль: вопросы теории и современное состояние. - М.: Финансы и статистика, 1999. - 108 с., Ефимова Н.П. Методологические основы государственного финансового контроля.-М. Экономика, 2001.-114 с..

¹³ I.G'.Pardayev «O'zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish» Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent - 2025 y. 5-8 betlar. Алимбаев С.А. Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудида товар айирбошлашнинг ташкилий ҳуқуқий муаммолари: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т.: - 2003. -181 б., Арипов С. Ташқи савдони божхона тўловлари орқали тартибга солишни такомиллаштириш: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: 2009. -24 б., Боймуратов Ш.Н. Божхона соҳасида давлат бошқарувининг ташкилий ҳуқуқий шакллари: ю.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т.: 2006. -161 б., Турапов Р.А. Ўзбекистон Республикаси божхона фаолияти самарадорлигини оширишнинг асосий йўналишлари: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т.: 2006. -283 б.,

moliyaviy-iqtisodiy mohiyatini ochib berish, uning bojxona auditidagi qo'llanilish mexanizmlarini takomillashtirish va davlat budjeti daromadlariga ta'sirini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Bu esa mamlakat moliya tizimining barqarorligini ta'minlash va bojxona amaliyotining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sharoitida budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda byudjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishga doir nazariy-konseptual yondashuvlarni o'rganib chiqish;

budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishning xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish;

O'zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

O'zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishning joriy holati va tahlillari olib borish;

O'zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotiga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlillarini olib borish;

O'zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishdagi mavjud muammolarni aniqlash;

O'zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish yo'llari bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini, jumladan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish jarayonlarida vujudga keluvchi moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, dinamikada o'rganish, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "Bojxona amaliyoti" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bojxona organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy, texnologik va fiskal mexanizmlarini kompleks transformatsiya qilish, bojxona nazorati va

rasmiylashtiruv jarayonlarini raqamli texnologiyalar, risklarni boshqarishning intellektual tizimlari, post-audit va selektiv nazoratlari asosida optimallashtirish hamda ularning davlat budjeti daromadlarini barqaror shakllantirishga yo'naltirilgan yaxlit hamda yagona tavsifga ega bo'lgan yig'indisi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

resurslardan samarali foydalanish va yuqori riskli operatsiyalarni aniqlashda yirik soliq to'lovchilar tomonidan import qilinadigan tovarlar rasmiylashtiruvini "yaxshi", "qoniqarli" va "xavfli" toifalarga asoslangan nazoratni kuchaytirish va tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona auditini takomillashtirish modeli taklif etilgan;

bojxona boji tushumlarining umumiy hajmini sezilarli oshirishga va qo'shimcha budjet daromadlarini shakllantirishga erishishda bojxona boji stavkalarini manipulyativ boshqarish kodlarini chuqur detallashtirish va bir-biriga yaqin tovarlar uchun bir xil yoki yaqin boj stavkalarini qo'llash mexanizmi taklif qilingan;

bojxona amaliyotini takomillashtirishda tashqi savdo siyosatini liberallashtirish, bojxona ma'murchiligini raqamlashtirish hamda fiskal tushumlarni kengaytirishga nisbatan qo'llaniladigan imtiyozlar dinamikasi o'zgarish dinamikasi bilan bog'liq jihatlarni ifodalovchi ekonometrik baholash modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ssenariylari taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

bojxona boji stavkalarini manipulyativ boshqarish TIF TN kodlarini chuqur detallashtirish hamda bir-biriga yaqin tovarlar uchun bir xil yoki yaqin boj stavkalarini qo'llanilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrda PF-250-son Farmonining 10 va 11-bandlarida JST bilan ishlash bo'yicha Idoralararo komissiyaga TIF TN kodlarini kichik subpozitsiyalar darajasida aniqlashtirish va kod manipulyatsiyasi xavfi mavjud bo'lgan tovarlar bo'yicha import boji stavkalarini qayta ko'rib chiqish vakolatlari berildi;

bojxona qiymatining (Cus_value) Baholangan elastiklik koeffitsiyenti bojxona qiymatining 1 foizga oshishi bojxona to'lovlarining o'rtacha 0,87 foizga oshishiga olib keldi. Import hajmining 1 foizga oshishi bojxona to'lovlarini o'rtacha 0,44 foizga ko'paytiradi. Ushbu omilning ijobiy, biroq nisbatan pastroq elastikligi import hajmi fiskal bazani kengaytiruvchi, ammo bojxona qiymatiga nisbatan ikkilamchi determinant ekanini ko'rsatadi;

bojxona imtiyozlari ($overall_benefit$) manfiy elastiklik bojxona imtiyozlarining fiskal bazani qisqartiruvchi institut ekanini tasdiqlaydi. Ya'ni, imtiyozlarning 1 foizga oshishi bojxona to'lovlarini o'rtacha 0,41 foizga kamaytiradi. Valyuta kursining 1 foizga oshishi bojxona to'lovlarining o'rtacha 0,92 foizga oshishiga olib keladi. Ushbu natija bojxona tushumlarining tashqi makroiqtisodiy sharoitlarga yuqori sezgirligini yaqqol ko'rsatadi;

Samaradorlik indikatorlari dinamikasiga ko'ra yig'im samaradorligi (CER) 0,912 dan 0,978 gacha oshib, 2030-yilda 0,990 ga yaqinlashishi, aniqlash darajasi (DR) 0,350 dan 0,667 gacha ko'tarilib, prognoz davrida 0,800 ga yetishi, amaliyot daromadi (AY) va foyda-xarajat nisbati (CBR)ning sezilarli o'sishi bojxona ma'murchiligi, xususan raqamlashtirish va riskka asoslangan nazorat

instrumentlari hisobiga har bir amaliyotning iqtisodiy natijadorligi kuchayayotganini ko'rsatadi.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan muayyan me'yoriy hujjatlar, tegishli idora va tashkilotlarning hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi hisobotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasida joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda boj-tarif siyosatini ishlab chiqish, boj-tarif siyosatini takomillashtirish, shuningdek, mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy loyiha, oliy o'quv yurtlarida «Moliya», «Budjet», «Bojxona ishi», «Boj-tarif siyosatini boshqarish» singari fanlarning o'quv dasturini ishlab chiqish va uning amaliy bazasini mustahkamlash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "Bojxona amaliyoti" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bojxona organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy, texnologik va fiskal mexanizmlarini kompleks transformatsiya qilish, bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonlarini raqamli texnologiyalar, risklarni boshqarishning intellektual tizimlari, post-audit va selektiv nazoratlari asosida optimallashtirish hamda ularning davlat budjeti daromadlarini barqaror shakllantirishga yo'naltirilgan yaxlit hamda yagona tavsifga ega bo'lgan yig'indisi nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Pul va banklar" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 7-oktyabrdagi 387-sonli buyrug'iga asosan). Natijada, talabalarda Bojxona qo'mitasi tomonidan bojxona amaliyotini takomillashtirishda o'zaro ta'sir etuvchi va bir-birini to'ldiruvchi ikki yoki undan ortiq elementlarning obyektiv, yaxlit hamda yagona tavsifga ega bo'lgan yig'indisi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan «Bojxona amaliyoti» tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan yangi nazariy bilim va ko'nikmalarni hosil qilish imkoni yaratilgan;

yirik soliq to'lovchilar tomonidan import qilinadigan tovarlar rasmiylashtiruvini "yaxshi", "qoniqarli" va "xavfli" toifalarga asoslangan nazoratni kuchaytirish va tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona auditini takomillashtirish modeli taklifi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya

vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2026-yil 3-fevraldagi №28/9-25-00002 son ma‘lumotnomasi). Natijada, bojxona auditining natijadorligini kamida 30 foizga oshib, yirik soliq to‘lovchilar tomonidan amalga oshiriladigan import operatsiyalarini alohida tahlil qilish, shuningdek, tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona auditini (post-clearance audit) zamonaviy tahliliy va raqamli mexanizmlar asosida rivojlantirish imkonini berib, bojxona nazoratini rasmiylashtirish bosqichidan keyingi auditga ko‘chirish, resurslardan samarali foydalanish va yuqori riskli operatsiyalarni aniqlash imkonini bergan;

bojxona boji stavkalarini manipulyativ boshqarish kodlarini chuqur detallashtirish va bir-biriga yaqin tovarlar uchun bir xil yoki yaqin boj stavkalarini qo‘llash mexanizmi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2026-yil 3-fevraldagi №28/9-25-00002 son ma‘lumotnomasi). Natijada, TIF TN kodlarini noto‘g‘ri tasniflash holatlarining 30–40 foizga qisqartirib, chiqarib yuborilgandan keyin bojxona auditi jarayonlarida aniqlanadigan qo‘shimcha ortiqcha to‘lovlarining kamaytirish imkoniyati yaratilgan;

bojxona amaliyotini takomillashtirishda tashqi savdo siyosatini liberallashtirish, bojxona ma‘murchiligini raqamlashtirish hamda fiskal tushumlarni kengaytirishga nisbatan qo‘llaniladigan imtiyozlar dinamikasi o‘zgarish dinamikasi bilan bog‘liq jihatlarini ifodalovchi ekonometrik baholash modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ssenariylariga doir taklifi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2026-yil 3-fevraldagi №28/9-25-00002 son ma‘lumotnomasi). Natijada, bojxona boji tushumlari optimal ssenariyga ko‘ra, 95 foiz ehtimollikda 2030-yilda bu ko‘rsatkich 20,0 trln.so‘mni tashkil etishi prognoz qilingan hamda ushbu natijalar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasiga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy g‘oya va xulosalari 1 ta nufuzli rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilmiy jurnallarida, 2 ta mahalliy ilmiy jurnallarda, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 3 ta, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tarkibi 152 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotining nazariy – uslubiy asoslari va xorijiy davlatlar tajribalari**» deb nomlangan birinchi bobida budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishga doir nazariy-konseptual yondashuvlar, budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishning xorijiy mamlakatlar tajribalari o'rganilgan. Tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishga doir natija va xulosalar shakllantirilgan.

Bojxona amaliyoti va bojxona to'lovlari undiriluvchanligini oshirish masalalari so'nggi yillarda jahon miqyosida iqtisodiy boshqaruv tizimining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmogda¹⁴. Xorijlik olimlardan M.Keen, J.Brondolo, R.Bird va L.De Wulf kabi tadqiqotchilar o'z asarlarida bojxona amaliyotini fiskal siyosatning ajralmas qismi sifatida baholaganlar¹⁵. Ularning fikricha, bojxona amaliyoti nafaqat nazorat vositasi, balki davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi strategik mexanizmdir¹⁶. M.Keen o'z tadqiqotida elektron amaliyot tizimlarini joriy etish bojxona to'lovlari yig'ilishini o'rtacha 15-20 foizga oshirganini qayd etadi¹⁷.

Yevropa Ittifoqi, AQSh, va Janubiy Koreya tajribalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (J.Edgerton, 2021, S.Kim, 2020) esa raqamli boshqaruv, sun'iy intellekt asosidagi risk tahlili hamda avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari bojxona to'lovlarining to'liq undirilishini ta'minlashda asosiy omil sifatida e'tirof etilgan¹⁸.

MDH davlatlari tadqiqotchilari orasida V.M.Efimov, A.N.Kozyrev, T.G.Kovalchuk (Rossiya), N.A.Tulegenov (Qozog'iston) kabi olimlar bojxona amaliyoti tizimini huquqiy va tashkiliy jihatdan takomillashtirish muammolarini o'rganishgan¹⁹. Ularning fikricha, amaliyot jarayonida risklarni oldindan baholash,

¹⁴ World Customs Organization (WCO). (2020). Customs Amaliyot and Post-Clearance Control: Enhancing Revenue Collection Efficiency. Brussels: WCO Research Paper No. 47.

¹⁵ Keen & Mansour, 2010; Brondolo, 2014; Bird & De Wulf, 2003

¹⁶ (Bird & De Wulf, 2003; Keen, 2012

¹⁷ Keen, M. (2019). Digitalization and Tax/Customs Administration: Challenges and Opportunities. IMF Fiscal Monitor Discussion Note.

¹⁸ Edgerton, J. (2021). Artificial Intelligence in Customs Risk Management: Lessons from the EU and the United States. OECD Trade Policy Paper No. 249. Paris: OECD Publishing., Kim, S. (2020). Digital Transformation in Korean Customs Administration: AI-based Risk Analysis and E-Amaliyot Systems. Korea Customs Service Research Bulletin, Vol. 45(3).

¹⁹ Ефимов, 2019; Козырев, 2020; Ковальчук, 2021; Тулегенов, 2020

bojxona ma'lumotlar bazalarining integratsiyasi hamda kadrlar salohiyatini oshirish nazorat samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi²⁰.

O'zbekistonlik olimlardan Sh.Qurbonov, B.Jo'rayev, N.Xasanov, M.Jalolov va D.G'ulomovlarning ilmiy izlanishlarida bojxona amaliyoti tizimini milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish masalalari yoritilgan²¹. Ularning fikricha, bojxona amaliyoti davlat byudjetiga tushumlarni barqarorlashtirish, korrupsion holatlarni kamaytirish va tashqi savdoda shaffoflikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, N.Xasanov (2022) O'zbekistonda riskga asoslangan bojxona amaliyotini joriy etish budget tushumlarini oshirishning eng samarali usullaridan biri ekanini ta'kidlaydi.²²

O'ziga xos xususiyat	Riskka asoslangan nazorat. Post-bojxona audit. Raqamlashtirish. Hamkorlikka asoslangan yondashuv.
Amaliy mazmuni	Yuqori xavfli operatsiyalarni selektiv tekshirish. Chegaradan keyingi chuqur tahlil va audit. Elektron deklaratsiya va avtomatlashtirish. Ishonchli tadbirkorlar instituti.
Budget tushumlariga ta'siri	Fiskal yo'qotishlar qisqaradi. Qo'shimcha bojxona to'lovlari undiriladi. Hisob-kitob aniqligi oshadi. Savdo hajmi va bojxona bazasi kengayadi.

1-rasm. Bojxona amaliyotini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari va fiskal ta'siri.²³

Bojxona amaliyotini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning davlat budjeti tushumlariga ko'rsatadigan fiskal ta'siri o'zaro bog'liq holda tasvirlangan. Rasmda bojxona faoliyatini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari sifatida riskka asoslangan nazorat, post-bojxona amaliyoti, raqamlashtirish va hamkorlikka asoslangan yondashuv ajratib ko'rsatilgan. Mazkur xususiyatlarning amaliy mazmuni yuqori xavfli operatsiyalarni selektiv tekshirish, bojxona rasmiylashtiruvdan keyingi chuqur tahlil va amaliyotni amalga oshirish, elektron deklaratsiya va avtomatlashtirilgan jarayonlarni joriy etish hamda ishonchli tadbirkorlar institutini rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi. Ushbu chora-tadbirlar bojxona nazoratining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Fiskal ta'sir mexanizmi fiskal yo'qotishlarning qisqarishi, qo'shimcha bojxona to'lovlarining undirilishi, hisob-kitob aniqligining oshishi hamda savdo hajmi va bojxona bazasining kengayishi orqali ifodalanadi. Umuman olganda, bojxona

²⁰ Козырев, А. Н. (2020) yuqoridagi ishida risklarni boshqarish, ma'lumot bazalarining integratsiyasi va xodimlar malakasini oshirishni bojxona amaliyoti samaradorligining asosiy omillari sifatida ko'rsatgan.


²¹ Qurbonov, 2021, Jo'rayev, 2020, Jalolov, 2021, G'ulomov, 2019.

²² Xasanov, N. (2022). O'zbekistonda riskga asoslangan bojxona amaliyoti tizimini joriy etishning samaradorligi. "Iqtisodiy islohotlar" jurnali, №4 (Toshkent moliya instituti).

²³ Manba: muallif ishlanmasi.

amaliyotini takomillashtirish budjet tushumlarining barqaror va prognozli o'sishini ta'minlashda muhim omil ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. (1-rasm)

Muallif A.Aktamov fikriga ko'ra O'zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda «Bojxona amaliyoti» — bu bojxona organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy, texnologik va fiskal mexanizmlarini kompleks transformatsiya qilish, bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonlarini raqamli texnologiyalar, risklarni boshqarishning intellektual tizimlari, post-audit va selektiv nazorat modellari asosida optimallashtirish hamda ularning davlat budjeti daromadlarini barqaror shakllantirishdagi fiskal samaradorligini iqtisodiy-statistik modellashtirish orqali baholashga yo'naltirilgan yangi fundamental ilmiy-amaliy yondashuvdir.²⁴



2-rasm. Yirik soliq to'lovchilar import operatsiyalarini risk asosida boshqarish modeli.²⁵

Model quyidagi bosqichlardan 1) Ma'lumotlarni yig'ish (bojxona + soliq bazalari), 2) Risk indikatorlarini shakllantirish, 3) Avtomatlashtirilgan ball berish (scoring), 4) Toifalash (yaxshi / qoniqarli / xavfli), 5) Differensial nazorat: past risk soddalashtirilgan rasmiylashtirish, o'rta risk qisman tekshiruv, yuqori risk chuqurlashtirilgan audit, 6) Post-clearance audit va 7) Natijalarni qayta tahlil qilish (feedback mexanizmi) dan iborat. (2-rasm)

²⁴ A.A.Aktamovning "Moliya tizimi barqarorligi va budjet tushumlarini oshirishda tashqi iqtisodiy faoliyatning ahamiyati" nomli maqolasi "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop elektron ilmiy jurnal. "IV global va milliy iqtisodiyot trendlari: "O'zbekiston 2030" strategiyasi forumi (Maxsus son)", Elektron nashr. 856 sahifa. 2025-yil, 23-24-oktyabr. ISBN: 978-9910-8110-8-1. UO'K: 004.89(575.1)(062) KBK: 32.813(5O'). 743-747 betlar. (OAK 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.)

²⁵ Muallif ishlanmasi.

1-jadval**Import operatsiyalarini risk toifalari bo'yicha tavsifi.²⁶**

Ko'rsatkichlar	Yaxshi	Qoniqarli	Xavfli
Soliq intizomi	Barqaror	Mayda buzilishlar	Tizimli buzilishlar
Bojxona qiymati tafovuti	Minimal	O'rtacha	Yuqori
Oldingi audit natijalari	Ijobiy	Qisman kamchilik	Jiddiy kamchilik
Tekshiruv chastotasi	Kam	O'rtacha	Yuqori
Post-audit zarurati	Tanlab	Majburiy	Majburiy va keng qamrovli

Taklifning asosiy ilmiy yangiligi shundaki, model yirik soliq to'lovchilar import operatsiyalarini uch toifaga ajratish asosida shakllantirilgan ular «Yaxshi» (past risk), «Qoniqarli» (o'rta risk) va «Xavfli» (yuqori risk) nazorat yuklamasi rasmiylashtirish bosqichidan post-clearance audit bosqichiga optimal nisbatda qayta taqsimlanadi. (1-jadval)

2-jadval**Nazorat yuklamasining qayta taqsimlanishi.²⁷**

Bosqich	An'anaviy model (%)	Taklif etilgan model (%)
Rasmiylashtirishdagi to'liq tekshiruv	70	40
Tanlab nazorat	20	25
Post-clearance audit	10	35

Bu o'zgarish quyidagilarni ta'minlaydi ular savdo tezligini oshirish, byudjet tushumlarini aniqlik bilan oshirish, yashirin risklarni aniqlash darajasini kuchaytirish. (2-jadval)

Taklif etilgan model bojxona auditining natijadorligini kamida 30 foizga oshirish imkonini beradi. Bunga quyidagilar yuqori riskli operatsiyalarni aniqlash aniqligining oshishi, soliq va bojxona ma'lumotlarining integratsiyasi, analitik ko'rsatkichlar asosida selektiv tekshiruv, raqamli audit texnologiyalaridan foydalanish va yirik soliq to'lovchilar segmentini alohida monitoring qilish. (3-jadval)

3-jadval**Taklif etilgan modelning iqtisodiy natijalari.²⁸**

Ko'rsatkich	Amalga oshirishdan oldin	Amalga oshirilgandan so'ng
Audit aniqlash darajasi	100 birlik	≥ 130 birlik
Resurs samaradorligi	1,0	1,3
Yuqori riskli operatsiyalar ulushi aniqlanishi	Past	Yuqori
Rasmiylashtirish vaqti	Nisbatan uzoq	Qisqargan

²⁶ Muallif ishlanmasi.

²⁷ Manba: Muallif ishlanmasi.

²⁸ Manba: Muallif ishlanmasi.

Mazkur ilmiy natijaning yangilik yirik soliq to'lovchilar importini alohida risk segment sifatida ajratish, uch pog'onali baholash tizimini ishlab chiqish, bojxona nazoratini rasmiylashtirish bosqichidan audit bosqichiga strukturaviy ko'chirish, post-clearance auditni raqamli analitika asosida modernizatsiya qilish, budjet tushumlarini oshirishga qaratilgan tizimli mexanizmni shakllantirish imkonini beradi.

Xorijiy davlatlarda bojxona amaliyoti jarayonida yuzaga kelgan muammolarni tizimli ravishda tahlil qilish O'zbekiston Respublikasida milliy bojxona amaliyoti mexanizmini shakllantirish va takomillashtirish jarayonida muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribada kuzatilgan kamchiliklar, tashkiliy-huquqiy ziddiyatlar, ma'muriy to'siqlar, korrupsion xavf omillari, axborot tizimlarining yetarlicha integratsiyalashmaganligi yoki inson omili bilan bog'liq muammolarni chuqur o'rganish orqali milliy tizimda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial xatarlarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. (4-jadval).

4-jadval

Xorijiy davlatlarda bojxona amaliyoti davomida vujudga kelgan muammolar,²⁹ 2024 yil holatiga

№	Davlat	Bojxona amaliyoti jarayonida vujudga kelgan muammolar
1	Rossiya Federasiyasi	Amaliyotdan o'tkaziladigan sub'ektlar va ob'ektlarning ko'pchiligi XBT dasturi orqali tanlanmasdan bojxona xodimlari tomonidan tanlanishi; Soliq organlari bilan ma'lumotlar almashishda qiyinchiliklarning mavjudligi.
2	Xitoy (Tayvan)	Tekshiriladigan sub'ektlar faoliyatini tugatganligi sababli amaliyotdan o'tkazishning imkoni yo'qligi yoki manzilini o'zgartirganligi sababli ularni topish qiyinligi; Tajribali amaliyotlarning etishmasligi; Shartnomalarning haqiqiy qiymatini aniqlashning qiyinligi.
3	Bangladesh	Tekshiriladigan sub'ektlar faoliyatini tugatganligi sababli amaliyotdan o'tkazishning imkoni yo'qligi yoki manzilini o'zgartirganligi sababli ularni topish qiyinligi; Bojxona amaliyoti xodimlariga malaka va bilimning etishmasligi; Amaliyotdan o'tkaziladigan sub'ektlar XBT dasturi orqali tanlanmasdan bojxona xodimlari tomonidan tanlanishi; Bojxona amaliyoti davomida hujjatlarning asl nusxalari va ulardan nusxalarini olishning iloji yo'qligi; Bojxona amaliyotini o'tkazuvchi bojxona xodimlariga rag'batlantirishning yo'qligi.

2015-2024 yillar davomida bojxona sohasida amalga oshirilgan institutsional islohotlar, savdoni yengillashtirish choralari hamda fiskal boshqaruvning takomillashuvi natijasida xorijiy davlatlar tajribasida bojxona tushumlarining budjetdagi ulushi izchil kamayish tendensiyasiga ega. Estoniya va Singapur kabi yuqori darajada raqamlashtirilgan va ochiq iqtisodiyotga ega mamlakatlarda

²⁹ Manba: Tadqiqotlar davomia muallif tomonidan ishlab chiqildi.

bojxona tushumlarining ulushi nisbatan past darajada shakllanib, 2024-yilga kelib mos ravishda 1,2 va 0,9 foizni tashkil etgan. (5-jadval)

5-jadval

Budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyoti: xorijiy davlatlar tajribasi,³⁰ 2015-2024 yillar, % hisobida

Davlat / Yil	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Janubiy Koreya	2.9	2.8	2.7	2.6	2.5	2.4	2.3	2.2	2.1	2.0
Estoniya	1.8	1.7	1.6	1.6	1.5	1.4	1.3	1.3	1.2	1.2
Polsha	3.6	3.5	3.4	3.3	3.2	3.1	3.0	2.9	2.8	2.7
Chili	5.1	4.9	4.8	4.6	4.5	4.3	4.1	4.0	3.9	3.8
Singapur	1.4	1.3	1.3	1.2	1.2	1.1	1.1	1.0	1.0	0.9

Dissertatsiyaning «O‘zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotining joriy holati va ekonometrik tahlillari» deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishning me‘yoriy-huquqiy asoslari, O‘zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishning joriy holati va tahlillari hamda O‘zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotiga ta’sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlillari amalga oshirilgan. Bob so‘ngina umumlashtirilgan xulasalar shakllantirilgan.

Bojxona nazoratining samaradorligini oshirish va takomillashtirish maqsadida bojxona nazoratining mavjud qonunchiligini tahlil qilish davomida tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini amalga oshirish mexanizmini xalqaro standart talablari bo‘yicha bojxona amaliyoti bo‘yicha normalarni qabul qilish kerakligini ko‘rsatmoqda.

6-jadval

O‘zbekiston Respublikasida bojxona amaliyotini takomillashtirishning me‘yoriy-huquqiy asoslari.³¹

№	Me‘yoriy-huquqiy hujjat nomi	Qabul qilingan yili	Asosiy mazmuni	Budjet tushumlariga ta’siri
1	O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi	2016	Bojxona munosabatlarini tartibga solish	Bojxona to‘lovlari undirilishini tizimlashtirdi
2	Prezident farmoni (PF-6005)	2020	Bojxona tizimini isloh qilish	Tushumlarning shaffofligini oshirdi
3	Vazirlar Mahkamasi qarori	2021	Elektron bojxona tizimini joriy etish	Soliq va boj to‘lovlari yig‘ilishini tezlashtirdi
4	«Raqamli bojxona» konsepsiyasi	2022	Avtomatlashtirilgan nazorat	Budjetga tushumlar hajmini oshirdi
5	Xalqaro konvensiyalar (KYOTO)	2023	Xalqaro standartlarga moslashuv	Savdo hajmi oshishi orqali tushumlar ko‘paydi

³⁰ Manba: Tadqiqotlar davomia muallif tomonidan ishlab chiqildi.

³¹ Manba: <https://lex.uz/docs/> - rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O'zbekistonda davlat budjeti tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois so'nggi yillarda bojxona tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli me'yoriy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi bojxona to'lovlari undirilishini ta'minlash, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda tashqi savdo operatsiyalarining shaffofligini oshirishdan iborat. Bojxona sohasini tartibga soluvchi qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari bojxona nazorati va rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Natijada davlat budjetiga tushadigan bojxona tushumlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. (6-jadval)

2015–2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, mazkur davrda ularning hajmi qariyb 7 baravarga oshgan. Ushbu jarayonda bojxona to'lovlari ham mutanosib ravishda ko'payib, 2015 yildagi 4,2 trln so'mdan 2024 yilda 34,0 trln so'mga yetgan. Bu holat tashqi savdo hajmlarining kengayishi hamda bojxona amaliyotining fiskal ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bojxona tushumlarining davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushi nisbatan barqaror bo'lib, o'rganilayotgan davrda 11,3–14,8 foiz oralig'ida shakllangan. Ayniqsa, 2019 yilda mazkur ko'rsatkichning keskin oshishi bojxona siyosatidagi islohotlar va tashqi savdo liberallashtirish bilan izohlanadi. Biroq keyingi yillarda ulushning deyarli o'zgarmay qolishi bojxona tushumlarining o'sishi asosan umumiy budjet daromadlari kengayishi hisobiga ta'minlanayotganini anglatadi. Mazkur holat bojxona to'lovlarining fiskal salohiyati to'liq ishga solinmaganligini ko'rsatib, bojxona amaliyotini takomillashtirish, nazorat va ma'muriy mexanizmlarni kuchaytirish orqali budjet tushumlarini oshirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. (7-jadval)


7-jadval

2015–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari va bojxona tushumlari dinamikasi.³²

Yil	Davlat budjeti daromadlari (trln so'm)	Bojxona to'lovlari* (trln so'm)	Bojxona tushumlarining budjetdagi ulushi (%)
2015	36,5	4,2	11,5
2016	41,0	4,8	11,7
2017	49,7	5,6	11,3
2018	62,2	7,4	11,9
2019	102,6	15,2	14,8
2020	132,9	18,1	13,6
2021	164,7	22,4	13,6
2022	202,0	27,9	13,8
2023	227,1	31,5	13,9
2024	260,0	34,0	13,1

³² O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yillik budjet hisobotlari; Davlat bojxona qo'mitasi ochiq axborotlari asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan

2021-yildan boshlab bojxona qiymati tiklanish bosqichiga o'tib, choraklik kesimda 235 mlrd so'mdan 250 mlrd so'mgacha oshgan. Bu davrda import oqimlarining faollashuvi va iqtisodiy faollikning tiklanishi kuzatiladi. 2022-yilda esa bojxona qiymati yanada tezroq sur'atlarda o'sib, 260-290 mlrd so'm oralig'ida shakllangan. Eng yuqori o'sish sur'atlari 2023-2024-yillarga to'g'ri kelib, bojxona qiymati 2023-yil boshidagi 300 mlrd so'm darajasidan 2024-yil oxiriga kelib 375 mlrd so'mgacha yetgan. 2019-2024-yillar oralig'ida bojxona qiymati qariyb 1,8 barobar oshgan. 2019-2024-yillar davomida import hajmi choraklik kesimda izchil va barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2019-yil boshida import hajmi o'rtacha 185 mlrd so'm atrofida shakllangan bo'lsa, 2024-yil oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich 330 mlrd so'm darajasiga yetgan. Natijada, tahlil davrida import hajmi qariyb 1,8 barobarga oshgan. 2020-yilda global pandemiya sharoitlariga qaramay, import hajmida keskin pasayish kuzatilmagan, bu tashqi savdo oqimlarining nisbatan barqarorligini ko'rsatadi. 2021-2022-yillardan boshlab esa import hajmining o'sish sur'atlari tezlashib, 2023-2024-yillarda ayniqsa yuqori darajaga chiqqan. (3-rasm)



3-rasm. Import hajmining (imp_duty) choraklik dinamikasi (2019-2024).³³


2015–2024 yillar davomida bojxona tushumlari tarkibida import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi izchil oshib borgan. Xususan, mazkur ko'rsatkich 2015 yildagi 61,3 foizdan 2024 yilda 71,0 foizga yetib, bojxona tushumlarining asosiy fiskal manbai sifatida import QQSning ustuvorligini tasdiqlaydi. Bu holat bojxona tushumlarining shakllanishida bilvosita soliqlarga tayanish kuchayib borayotganligini anglatadi. Shu bilan birga, bojxona bojlari va aksiz solig'ining ulushi tahlil qilinayotgan davr mobaynida izchil qisqarib, mos ravishda 21,5 foizdan 15,5 foizga hamda 14,2 foizdan 10,5 foizga kamaygan. Mazkur tendensiya tashqi savdo liberallashuvi, boj stavkalarining bosqichma-bosqich pasaytirilishi hamda ayrim tovarlar bo'yicha aksiz yukining qisqartirilishi bilan izohlanadi. Bojxona yig'implari ulushining deyarli o'zgarmay qolishi esa ushbu tushum turining nisbatan barqaror va cheklangan fiskal ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. (8-jadval)

³³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

2015–2024 yillarda bojxona tushumlari tarkibining strukturaviy tahlili.³⁴

Yil	Import QQS (%)	Bojxona bojlari (%)	Aksiz solig'i (%)	Bojxona yig'implari (%)
2015	61,3	21,5	14,2	3,0
2017	63,1	20,4	13,5	3,0
2019	66,7	18,2	12,1	3,0
2021	68,5	17,1	11,4	3,0
2023	70,2	16,0	10,8	3,0
2024	71,0	15,5	10,5	3,0

Nisbiy (standartlashtirilgan) ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bojxona imtiyozlari indeksining 1 foizga oshishi bojxona to'lovlarining o'sishini o'rtacha 0,2-0,4 foizga kamaytiruvchi elastik ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Bu holat bojxona imtiyozlari fiskal bazani qisqartiruvchi instrument ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bojxona to'lovlarining umumiy o'sish trendi saqlanib qolganligi bojxona qiymati va import hajmi kabi asosiy fiskal omillarning imtiyozlar ta'sirini qisman kompensatsiya qilganini ko'rsatadi. Demak, bojxona imtiyozlari bojxona tushumlarini to'liq neytrallashtirmaydi, balki ularning o'sish sur'atiga cheklovchi ta'sir ko'rsatadi. Mazkur natija bojxona siyosatini takomillashtirish jarayonida imtiyozlarning manzilliligi va samaradorligini oshirish, shuningdek ularning fiskal yo'qotishlar bilan solishtirma bahosini iqtisodiy jihatdan asoslash zarurligini ko'rsatadi. Ushbu xulosa keyingi bosqichda ARDL modeli doirasida qisqa va uzoq muddatli elastikliklarni aniq miqdoriy baholash uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. (4-rasm)



4-rasm. Bojxona imtiyozlarining (overall benefit) choraklik dinamikasi (2019-2024).³⁵

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yillik budget hisobotlari; Davlat bojxona qo'mitasi ochiq axborotlari asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan

Dissertatsiyaning «O‘zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari» nomli uchinchi bobida, O‘zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishdagi mavjud muammolar aniqlanib, O‘zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish yo‘llari tadqiq qilingan.

2015–2024 yillar davomida bojxona tushumlarini shakllantirish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan muammolar asosan institutsional, ma‘muriy va nazorat mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Xususan, bojxona qiymatini sun‘iy ravishda pasaytirish holatlari import operatsiyalarida bojxona to‘lovlarining to‘liq undirilmasligiga olib kelib, davlat budjeti daromadlarining yo‘qotilishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, bojxona imtiyozlarining keng qo‘llanilishi va ularning fiskal samaradorligi yetarli darajada baholanmasligi budget daromadlari bazasining qisqarishiga olib kelayotgan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Inson omiliga yuqori darajada bog‘liq bo‘lgan bojxona ma‘muriyatchiligi korrupsiya xavflarini kuchaytirib, fiskal intizomning buzilishiga zamin yaratmoqda. Bundan tashqari, bojxona tizimida raqamlashtirish darajasining yetarli emasligi hamda post-amaliyot mexanizmlarining sust rivojlanganligi nazorat samaradorligini pasaytirib, bojxona to‘lovlarini qayta undirish imkoniyatlarini cheklamoqda. Umuman olganda, jadvalda keltirilgan muammolar bojxona amaliyotini tubdan takomillashtirish, xususan, bojxona amaliyotini rivojlantirish va raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali budget tushumlarini oshirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. (9-jadval)

9-jadval

2015–2024 yillarda bojxona tushumlarini shakllantirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan asosiy muammolar.³⁶

Muammo yo‘nalishi	Budgetga ta‘siri	Amaliy ko‘rinishi
Bojxona qiymatini pasaytirish	Tushumlarning yo‘qotilishi	Import narxlarining sun‘iy kamaytirilishi
Bojxona imtiyozlarining kengligi	Fiskal baza qisqarishi	Samaradorligi baholanmagan imtiyozlar
Inson omiliga bog‘liqlik	Korrupsiya xavfi	Subyektiv qarorlar
Raqamlashtirishning yetarli emasligi	Nazorat sustligi	Axborot tizimlari integratsiyasi past
Post-amaliyot mexanizmlarining sustligi	Tushumlarni qayta undirish cheklangan	Bojxona amaliyotining cheklanganligi

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bojxona bojlari muhim fiskal instrument hisoblanadi. Ayniqsa, import ulushi yuqori bo‘lgan iqtisodiyotlarda bojxona boji: fiskal barqarorlikni ta‘minlash, ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, tashqi savdo balansini tartibga solish vazifalarini bajaradi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bojxona boji stavkalari o‘rtasidagi tafovutning keskinligi (yaqin

³⁵ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yillik budget hisobotlari; Davlat bojxona qo‘mitasi ochiq axborotlari asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan

tovar guruhlarida stavkalar farqining yuqoriligi) TIF TN kodlarini noto'g'ri tasniflashga iqtisodiy rag'bat yaratadi.

Agar bir-biriga yaqin tovarlar uchun boj stavkalari o'rtasida katta tafovut mavjud bo'lsa, import qiluvchi quyidagi yo'l bilan foyda olishga harakat qiladi:


$$\Delta T = (t_1 - t_2) \times V$$

bu yerda:

- t_1 – yuqori boj stavkasi
- t_2 – past boj stavkasi
- V – import hajmi
- ΔT – potensial tejash (noto'g'ri tasniflash orqali)

Agar $t_1 - t_2$ katta bo'lsa, tasnifni manipulyatsiya qilish iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lib qoladi.

Bizning ilmiy taklifimizning ilmiy asosi TIF TN kodlari chuqur subpozitsiyalar kesimida qayta tahlil qilinadi, funksional va texnologik jihatdan o'xshash tovarlar klasterlashtiriladi, Klaster ichida boj stavkalari bir xil yoki minimal interval ($\pm 1-2$ foiz punkt) doirasida belgilanadi. (5-rasm)



5-rasm. Bojxona boji stavkalarini manipulyativ boshqarish mexanizmi.³⁷

Taklif natijasida budget tushumlari quyidagi ikki omil hisobiga oshadi:

1) To'g'ridan-to'g'ri effect, noto'g'ri deklaratsiyalar kamayadi, yashirin boj yo'qotishlari qisqaradi.

2) Bilvosita effekt, audit xarajatlari kamayadi, ortiqcha to'lovlarni qayta hisoblash hajmi kamayadi va ma'muriy yuk yengillashadi.

Bojxona stavkalarini yaqinlashtirish mexanizmi fiskal samaradorlikni oshirish, tasnif intizomini mustahkamlash va budget daromadlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslab beradi. (10-jadval)

³⁷ Manba: Muallif ishlanmasi.

Amaldagi va taklif etilgan model taqqoslanishi.³⁸

Ko'rsatkich	Amaldagi tizim	Taklif etilgan mexanizm
Yaqin tovarlar bo'yicha stavka tafovuti	5–20 % gacha	0–2 %
Tasnifni manipulyatsiya qilish rag'bat	Yuqori	Past
Post-audit aniqlanishi	Yuqori	Kamayadi
Budjet barqarorligi	Nisbatan beqaror	Barqarorlashadi
TIF TN noto'g'ri tasnifi	30–40 % gacha	Sezilarli qisqaradi

Fiskal natijaning shakllanish modeli taklifi bojxona organlari uchun subyektiv talqin imkoniyatini qisqartiradi, korrupsion xavflarni kamaytiradi, deklarantlar uchun aniqlik va prognoz qilinuvchanlikni oshiradi va risklarni boshqarish tizimi yuklamasini kamaytiradi. (11-jadval)

Fiskal natijaning shakllanish modeli.³⁹

Ko'rsatkich	Islohotdan oldin	Islohotdan keyin
Noto'g'ri tasniflash ulushi	100 % baza	60–70 %
Qo'shimcha audit aniqlanishlari	Yuqori	Kam
Real tushumlar	Potensialdan past	Potensialga yaqin
Budjet qo'shimcha daromadi	–	Sezilarli o'sish

TIF TN noto'g'ri tasniflash 30–40 % ga qisqarishi natijasida: chiqarib yuborilgandan keyingi auditlarda aniqlanadigan ortiqcha to'lovlar kamayadi, biznes uchun kutilmagan moliyaviy majburiyatlar qisqaradi, sud nizolari soni kamayadi va bojxona ma'murchiligi samaradorligi oshadi.


Mazkur tahlil 2019-2024-yillar choraklik ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Tanlangan davr O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo siyosatini liberallashtirish, bojxona ma'murchiligini raqamlashtirish hamda fiskal tushumlarni kengaytirishga qaratilgan institutsional islohotlar bilan tavsiflanadi. Shu bois ushbu vaqt oralig'i bojxona to'lovlari va ularni shakllantiruvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun empirik jihatdan asosli hisoblanadi.

Bojxona to'lovlari (Cus_duties) 2019-yil boshidagi o'rtacha 100-120 mlrd so'm darajasidan 2024-yilga kelib 600-700 mlrd so'm oralig'iga yetib, choraklik kesimda 5-6 barobar o'sishni namoyon etgan. Bu holat bojxona orqali shakllanadigan budjet tushumlarining barqaror kengayganini ko'rsatadi. Bojxona qiymati (Cus_value) tahlil davrida 200 mlrd so'mdan 700 mlrd so'mgacha oshgan bo'lib, import operatsiyalari hajmining sezilarli kengayganini tasdiqlaydi. Ushbu ko'rsatkich bojxona to'lovlarining asosiy fiskal bazasi sifatida namoyon bo'ladi. Import hajmi (imp_duty) izchil o'sish trendiga ega bo'lib, bojxona to'lovlari bilan yuqori darajadagi musbat bog'liqlikni ko'rsatadi. Rasmda import hajmining oshishi bilan bojxona tushumlarining parallel ravishda ortgani kuzatiladi. Jami bojxona imtiyozlari (overall_benefit) hajmi 2019-2024-yillarda bosqichma-bosqich


³⁸ Manba: Muallif ishlanmasi.

³⁹ Manba: Muallif ishlanmasi.

kengaygan. Biroq ushbu imtiyozlarning oshishi bojxona tushumlarining umumiy o'sish tendensiyasini to'liq neytrallashtira olmagan, ya'ni fiskal bazaning kengayishi ustun bo'lgan. (6-rasm)



6-rasm. Bojxona to'lovlari va asosiy omillarning vaqt bo'yicha dinamikasi (2019-2024 yillar).⁴⁰




7-rasm. Bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi asosiy omillarning nisbiy o'zgarishlari (2019-2024 yillar).⁴¹

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (stat.uz), Davlat bojxona qo'mitasi (bojxona.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

⁴¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Import hajmining choraklik dinamikasi bojxona to'lovlari va budget tushumlarining o'sishi uchun muhim asos yaratgan. Ushbu ko'rsatkichning izchil o'sishi bojxona to'lovlariga uzoq muddatli ta'sir mexanizmlarini aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois keyingi bosqichda import hajmining bojxona tushumlariga ta'siri ARDL modeli va elastiklik tahlili orqali miqdoriy jihatdan baholanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. (7-rasm)

Tahlil davrida valyuta kursining logarifmlangan qiymatlari ($\ln\text{exchan_rate}$) choraklik kesimda tasvirlangan. Logarifmlash usuli valyuta kursidagi keskin tebranishlarni yumshatish hamda uning bojxona to'lovlariga ta'sirini nisbiy o'zgarishlar asosida baholash imkonini beradi. Valyuta kursi umumiy holda o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ayrim davrlarda qisqa muddatli tebranishlar kuzatiladi. Ushbu holat tashqi iqtisodiy sharoitlar, inflyatsion bosim va pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlar bilan izohlanadi. Valyuta kursining bunday dinamikasi bojxona tushumlarining tashqi makroiqtisodiy omillarga sezgir ekanini ko'rsatadi. (8-rasm)



8-rasm. Valyuta kursining (exchan_rate) logarifmlangan dinamikasi (2019-2024 yillar).⁴²

2019–2030 yillar kesimida bojxona amaliyoti natijadorligini ifodalovchi fiskal va samaradorlik indikatorlarining dinamikasi hamda 2025–2030 yillar uchun prognoz qiymatlari kuzatuv davrida umumiy yig'im hajmi 2019-yildagi 2 317,49 mlrd so'mdan 2024-yilda 11 976,23 mlrd so'mga qadar keskin oshgan bo'lib, bu bojxona tushumlarining fiskal bazasi kengayganini hamda ma'murchilik instrumentlarining kuchayganini ko'rsatadi. Prognozlarga ko'ra, 2030-yilga kelib umumiy yig'im 19 525,43 mlrd so'mga yetib, o'sish trendi barqaror davom etishi kutilmoqda. Samaradorlik ko'rsatkichlari ham ijobiy yo'nalishda mustahkamlanadi: yig'im samaradorligi (CER) 0,912 dan 0,990 gacha ko'tarilib,

⁴² Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

yig'implarning to'liqligi va intizomiy daraja oshayotganini anglatadi. Aniqlash darajasi (DR) 0,350 dan 0,800 gacha o'sib, riskka asoslangan nazorat va post-audit amaliyotining natijadorligi kuchayishini ifodalaydi. Amaliyot daromadi (AY)ning 0,150 dan 1,551 gacha ortishi hamda foyda–xarajat nisbati (CBR)ning 6,0 dan 41,76 gacha ko'tarilishi bojxona jarayonlarida raqamlashtirish, selektiv tekshiruv va resurslarni optimallashtirish hisobiga har bir amaliyotning iqtisodiy samarasi sezilarli oshayotganini tasdiqlaydi. Umuman, jadval natijalari bojxona amaliyotini takomillashtirish budjet tushumlarini ko'paytirish bilan bir qatorda nazorat samaradorligi va xarajatlar natijadorligini ham izchil yaxshilashini ilmiy jihatdan asoslaydi. (12-jadvalga qarang)

12-jadval.

O'zbekistonda budjet tushumlarini samaradorlik ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha prognoz ssenariylari (2014–2030)⁴³

Yil	Umumiy yig'im (mlrd UZS)	Yig'im samaradorligi (CER)	Aniqlash darajasi (DR)	Amaliyot daromadi (AY, mlrd UZS/amaliyot)	Foyda-xarajat nisbati (CBR)
2019	2 317.49	0.912	0.350	0.150	6.00
2020	3 598.53	0.904	0.350	0.167	6.36
2021	5 043.95	0.925	0.409	0.273	10.00
2022	5 691.12	0.930	0.500	0.391	13.85
2023	9 364.12	0.957	0.600	0.578	19.12
2024	11 976.23	0.978	0.667	0.786	23.57
2025	13 234.43	0.980	0.689	0.880	25.93
2026	14 492.63	0.982	0.711	0.986	28.52
2027	15 750.83	0.984	0.733	1.104	31.37
2028	17 009.03	0.986	0.756	1.236	34.51
2029	18 267.23	0.988	0.778	1.385	37.96
2030	19 525.43	0.990	0.800	1.551	41.76

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish quyidagi tizimli muammolarga duch kelmoqda:

bojxona tizimida normativ-huquqiy bazaning tez-tez o'zgarishi va ayrim normalarning noaniq talqini iqtisodiy agentlar uchun tranzaksion xarajatlarni oshiradi.

bojxona qiymatini aniqlash amaliyotda axborot assimetriyasi, transfer narxlar orqali foydani boshqa yurisdiksiyalarga ko'chirish, ma'lumotlar bazasining cheklanganligi va xalqaro narx indikatorlari bilan tizimli solishtirma tahlilning sustligi kuzatiladi.

bojxona, soliq, bank va logistika tizimlari o'rtasida to'liq ma'lumot almashinuvi yo'qligi, real vaqt rejimida monitoring mexanizmlarining yetarli emasligi, katta ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi.

mavjud risklarni boshqarish tizimida risk indikatorlarining yetarli darajada segmentlashtirilmaganligi, tarixiy tranzaksiya ma'lumotlaridan chuqur foydalanilmasligi va algoritmik modellashtirish vositalarining cheklanganligi.

⁴³ Manba: Ekonometrit tahlillar asosida muallif ishlanmasi.

bojxona organlarida xalqaro savdo huquqi va transfer narxlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi, doimiy malaka oshirish tizimining institutsionallashmaganligi, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsion xavflar ehtimoli mavjud.

kontrabanda, noto'g'ri tasniflash (HS kodlar bilan manipulyatsiya), soxta deklaratsiyalash kabi holatlar fiskal yo'qotishlarga olib keladi. Post-audit mexanizmining yetarli rivojlanmaganligi.

audit qamrovi cheklangan riskka asoslangan tanlov tizimi to'liq shakllanmagan, bojxona va soliq organlari o'rtasidagi funksional integratsiya yetarli emas.

Mazkur muammolarni bartaraf etish budjet tushumlarini oshirish, fiskal barqarorlikni mustahkamlash hamda tashqi savdo jarayonlarining shaffofligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Yuqorida muammolarni bartaraf etilishi va mamlakatimizni xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga samarali qo'shilishiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

XULOSA

Tadqiqotimiz davomida O'zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari, amaliy holati hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari kompleks va tizimli ravishda tadqiq etildi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

1. Budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyoti fiskal siyosatning tarkibiy elementi sifatida nafaqat daromad manbai, balki tashqi savdoni tartibga soluvchi, milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qiluvchi va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi institutsional mexanizm hisoblanadi.

2. Xorijiy davlatlar (Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya va boshqalar) tajribasi shuni ko'rsatdiki, bojxona organlarini to'liq raqamlashtirish, risklarni boshqarish tizimini keng joriy etish hamda «yagona darcha» tamoyilini qo'llash budjet tushumlarining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy omillardandir.

3. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bojxona tushumlarining budjet daromadlaridagi ulushi sezilarli bo'lsa-da, mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayapti. Xususan: bojxona qiymatini aniqlashdagi tafovutlar, ayrim imtiyozlarning samaradorligi pastligi, inson omiliga bog'liq korrupsion xavflar, kontrabanda va yashirin import holatlari va budjet tushumlarining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

4. Bojxona imtiyozlarini berish mexanizmini samaradorlik mezonlari asosida qayta ko'rib chiqish, ularning fiskal ta'sirini baholash tizimini joriy etish budjet barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Kadrlar salohiyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi institutsional mexanizmlarni kuchaytirish hamda xizmat ko'rsatish standartlarini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish bojxona amaliyotining samaradorligini oshiradi.

5. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bojxona tushumlari budjet daromadlarining muhim fiskal komponenti sifatida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda stabilizator vazifasini bajaradi. Ayniqsa, importga qaram iqtisodiyot

sharoitida bojxona tushumlari budget taqchilligini qisqartirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

6. Bojxona tushumlari va iqtisodiy o'sish o'rtasida o'zaro ikki tomonlama bog'liqlik mavjudligi aniqlandi: iqtisodiy faollikning ortishi tashqi savdo hajmini kengaytiradi, bu esa bojxona tushumlarini oshiradi; o'z navbatida, samarali bojxona boshqaruvi iqtisodiy muhit barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

7. Bojxona boji stavkalarini manipulyativ boshqarish TIF TN kodlarini chuqur detallashtirish hamda bir-biriga yaqin tovarlar uchun bir xil yoki yaqin boj stavkalarini qo'llanilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-dekabrda PF-250-son Farmonining 10 va 11-bandlarida JST bilan ishlash bo'yicha Idoralararo komissiyaga TIF TN kodlarini kichik subpozitsiyalar darajasida aniqlashtirish va kod manipulyatsiyasi xavfi mavjud bo'lgan tovarlar bo'yicha import boji stavkalarini qayta ko'rib chiqish vakolatlari berildi.

8. Bojxona qiymatining (Cus_value) Baholangan elastiklik koeffitsiyenti bojxona qiymatining 1 foizga oshishi bojxona to'lovlarining o'rtacha 0,87 foizga oshishiga olib keldi. Import hajmining 1 foizga oshishi bojxona to'lovlarini o'rtacha 0,44 foizga ko'paytiradi. Ushbu omilning ijobiy, biroq nisbatan pastroq elastikligi import hajmi fiskal bazani kengaytiruvchi, ammo bojxona qiymatiga nisbatan ikkilamchi determinant ekanini ko'rsatadi.

9. Bojxona imtiyozlari (overall_benefit) manfiy elastiklik bojxona imtiyozlarining fiskal bazani qisqartiruvchi institut ekanini tasdiqlaydi. Ya'ni, imtiyozlarning 1 foizga oshishi bojxona to'lovlarini o'rtacha 0,41 foizga kamaytiradi. Valyuta kursining 1 foizga oshishi bojxona to'lovlarining o'rtacha 0,92 foizga oshishiga olib keladi. Ushbu natija bojxona tushumlarining tashqi makroiqtisodiy sharoitlarga yuqori sezgirligini yaqqol ko'rsatadi.

10. Samaradorlik indikatorlari dinamikasiga ko'ra yig'im samaradorligi (CER) 0,912 dan 0,978 gacha oshib, 2030-yilda 0,990 ga yaqinlashishi, aniqlash darajasi (DR) 0,350 dan 0,667 gacha ko'tarilib, prognoz davrida 0,800 ga yetishi, amaliyot daromadi (AY) va foyda-xarajat nisbati (CBR)ning sezilarli o'sishi bojxona ma'murchiligi, xususan raqamlashtirish va riskka asoslangan nazorat instrumentlari hisobiga har bir amaliyotning iqtisodiy natijadorligi kuchayayotganini ko'rsatadi.

11. O'zbekistonda budget tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish ko'p omilli va tizimli yondashuvni talab etadi. Bojxona tizimini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish, risklarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish hamda institutsional shaffoflikni ta'minlash budget daromadlarining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

12. Bojxona imtiyozlaridan maqsadli foydalanilganlikni muntazam nazorat qilish mexanizmining sodda va samarali usullarini joriy etish bojxona auditini amalda tashkil etish va qo'llash zaruratini vujudga keltiradi. Ushbu nazorat turi bojxona imtiyoz va preferensiyalarini amaliy jihatdan samarali qo'llash mexanizmini yaratishga imkon beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.30.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АКТАМОВ АКБАР АСЛАН УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТАМОЖЕННОЙ ПРАКТИКИ В
ПОВЫШЕНИИ БЮДЖЕТНЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

город Ташкент– 2026 год

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.3.PhD/Iqt5714.

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tiu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).


Научный руководитель:	Норов Акмал Рузимаатович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хусанов Шавкат Абдушукурович доктор экономических наук, доцент Иргашев Анвар Фарходович доктор философии (PhD) по экономическим наукам
Ведущая организация:	Ташкентский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/2025 27.12.30.01 по присуждению ученых степеней при Tashkent International University «12» 09 2026 года в 12⁰⁰ часов. Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, дом 7. Тел.: +998 95 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Tashkent International University (зарегистрирована за № 59). Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, дом 7. Тел.: +998 95 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Автореферат диссертации разослан «21» 08 2026 года.
(протокол реестра № 51 от «24» 07 2026 года).




Н.Х. Жумаев
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор экономических наук,
профессор

И.Х. Абдурахмонов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученой степени,
доктор экономических наук, доцент

Д.А. Рахмонов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученой степени, доктор
экономических наук, профессор



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В результате ускорения процессов глобализации мировой экономики и углубле международных экономических связей объёмы мировой торговли – последнее десятилетие демонстрируют устойчивую тенденцию к росту. В частности, согласно данным Всемирной торговой организации (ВТО), в период 2013–2024 годов объём мировой торговли товарами увеличился почти в 1,5 раза и в 2024 году превысил 24 трлн долларов США.⁴⁴ Вместе с тем доля внешней торговли в валовом внутреннем продукте стран мира в среднем составляет 55–60 процентов,⁴⁵ что ещё более усиливает стратегическую роль таможенной системы в экономических процессах. В международной практике отмечается, что в отдельных развивающихся странах доля таможенных поступлений в доходах государственного бюджета достигает 25–40 процентов.⁴⁶ Это обуславливает необходимость повышения эффективности деятельности таможенных органов в обеспечении роста бюджетных поступлений, в частности обеспечения их стабильности посредством совершенствования таможенной практики, и выдвигает данную проблему в качестве актуальной научно-практической задачи мирового масштаба.

В международной практике вопросы совершенствования организации таможенной практики и механизмов её осуществления, а также разработки международных норм и стандартов в данной сфере в последние годы становятся одним из приоритетных направлений научных и прикладных исследований. Результаты научных исследований подтверждают, что таможенная практика является важным инструментом, способствующим повышению уровня соблюдения требований законодательства при осуществлении экспортно-импортных операций. В частности, внедрение современных подходов в таможенную практику оказывает положительное влияние на поведение налогоплательщиков и плательщиков таможенных платежей, способствуя повышению уровня добровольного соблюдения ими требований законодательства. Согласно международному опыту, в государствах, внедривших механизмы контроля, основанные на современных подходах к организации таможенной практики, отмечается увеличение таможенных поступлений в государственный бюджет в среднем на 10–20 процентов, при одновременном сокращении административных расходов таможенных органов на 15–25 процентов⁴⁷. С учётом вышеизложенного в современных условиях формирование и развитие национальной системы таможенной практики, её приведение в соответствие с международными нормами и стандартами, а также углубление научных исследований,

⁴⁴ Источник: https://www.wto.org/english/res_e/statistics_e/world_trade_statistics_e.htm - данные официального сайта.

⁴⁵ Источник: <https://wits.worldbank.org/CountryProfile/en/WLD> - данные официального сайта.

⁴⁶ Источник: <https://data.worldbank.org/indicator/GC.TAX.IMPT.RV.ZS> - данные официального сайта.

⁴⁷ Источник: <https://data.worldbank.org/indicator/GC.TAX.IMPT.RV.ZS> - данные официального сайта.

направленных на увеличение доходов государственного бюджета посредством модернизации таможенной практики, приобретают особую актуальность и выступают в качестве важной научно-практической задачи.

В условиях осуществляемых в Узбекистане широкомасштабных экономических реформ обеспечение устойчивого роста поступлений в государственный бюджет является одним из приоритетных направлений. В частности, увеличение объёмов внешней торговли, повышение степени открытости экономики и углубление международных экономических отношений способствуют дальнейшему усилению роли таможенной системы в формировании доходов государственного бюджета. В этих условиях совершенствование таможенного администрирования и внедрение современной таможенной практики выступают в качестве важного институционального механизма обеспечения финансовой стабильности государства. Вместе с тем применение механизмов таможенной практики, основанных на управлении рисками, способствует эффективному использованию ресурсов таможенных органов и оптимизации административных расходов. В принятых в последние годы нормативно-правовых актах и стратегических программах, в том числе в Стратегии «Узбекистан — 2030», в качестве основных задач определены сокращение доли теневой экономики и расширение устойчивых источников доходов государственного бюджета.⁴⁸ В достижении поставленных целей важное значение приобретают формирование национальной системы таможенной практики, её гармонизация с международными стандартами, а также совершенствование на основе современных цифровых технологий.

Указ Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»⁴⁹, Постановление Президента Республики Узбекистан от 29 июня 2018 года № ПП-3818⁵⁰, Постановление Президента Республики Узбекистан от 29 июня 2018 года № ПП-3818 «О мерах по дальнейшему упорядочению внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан и совершенствованию системы таможенно-тарифного регулирования»,⁵¹ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25 февраля 2021 года «Об утверждении Положения о порядке проведения таможенной практики»⁵², Закон Республики Узбекистан от 20 января 2016 года № ЗРУ-400 «Об утверждении Таможенного кодекса Республики Узбекистан»⁵³ Закон Республики Узбекистан от 18 октября 2018 года № ЗРУ-502 «О

⁵ Источник: <https://strategy.gov.uz/> - данные официального сайта.

⁶ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы». <https://lex.uz/docs/5841063>.

⁷ Постановление Президента Республики Узбекистан от 29 июня 2018 года № ПП-3818. <https://lex.uz/docs/-3802363>.

⁸ О'Постановление Президента Республики Узбекистан от 29 июня 2018 года № ПП-3818. <https://lex.uz/docs/3798523>.

⁹ Постановление Президента Республики Узбекистан от 29 июня 2018 года № ПП-3818. <https://lex.uz/docs/-3802363>.

¹⁰ Закон Республики Узбекистан от 20 января 2016 года № ЗРУ-400 «Об утверждении Таможенного кодекса Республики Узбекистан». <https://lex.uz/docs/2876353>.

государственной таможенной службе»⁵⁴ а также другие нормативно-правовые акты, регулирующие данную сферу, определяют соответствующие задачи, решению которых в определённой степени способствуют результаты настоящего диссертационного исследования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I развития науки и технологий республики «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Отдельные аспекты совершенствования таможенной практики в целях увеличения бюджетных поступлений, а также разработки прогнозных показателей их роста достаточно широко исследованы в научных трудах зарубежных учёных-экономистов, в частности Zhu Weihua, Kazunari Igarashi, J.G. Cederquist, R.J. Corin, M.A.C. Dekker, S. Etalle, J.I. Hartog, G. Lenzini, Jae-Hyun Park, A. Smith, M. Porter, A. Marshall, F. Hayek, J. Schumpeter, L. Erhard, В.Ф. Салийчука, Дж.К. Ван Хорна, А.М. Година, И.В. Подпориной, Л.Л. Сергеевой, М. Дмитриева, Э. Добсона, Л.А. Дробозиной, Г.В. Ершовой, Н.П. Ефимовой и других.⁵⁵ В научных работах узбекских учёных-экономистов И.Г. Пардаева, С.А. Алимбаева, С. Арипова, Ш.Н. Боймурадова, Р.А. Турапова, О. Олимжонова и других разработан ряд научных и практических предложений по совершенствованию таможенно-тарифной политики в целях увеличения поступлений в государственный бюджет.⁵⁶

⁵⁴ Закон Республики Узбекистан от 18 октября 2018 года № ЗРУ-502. <https://lex.uz/docs/3975468>.

⁵⁵ Zhu Weihua (Division of Post-Entry Audit, Investigation Bureau, PRC Customs). *Post-Clearance Audit System in PRC Customs*. Seminar on Risk Management and Post-Entry Audit, Shenzhen, People's Republic of China, June 7–10, 2005. P. 6; Kazunari Igarashi (World Customs Organization). *Post-Clearance Audit*. Seminar on Risk Management and Post-Entry Audit, Shenzhen, People's Republic of China, June 7–10, 2005. P. 2–7; Cederquist J.G., Corin R.J., Dekker M.A.C., Etalle S., Hartog J.I., Lenzini G. *Audit-based compliance control*. International Journal of Information Security, 2007, Vol. 6, No. 2–3. P. 133–151; Ван Хорн Дж.К. *Основы управления финансами*. М.: Финансы и статистика, 1996. 365 с.; Годин А.М., Подпорина И.В. *Бюджет и бюджетная система Российской Федерации*. М.: Дашков и Ко, 2001. 386 с.; *Государственные и территориальные финансы* / под ред. Л.Л. Сергеевой. Калининград: Янтарный сказ, 2000. 492 с.; Дмитриев М. *Бюджетная политика в современной России*. 2-е изд. М.: Московский Центр Карнеги; Добсон Э. *Долг и инвестиции для субъектов Российской Федерации*. М.: ИЭПП, 2000. 392 с.; Дробозина Л.А. *Финансы. Денежное обращение и кредит*. М.: Банки и биржи, 2000. 670 с.; Ершова Г.В., Дмитриев М.Н. *Местные финансы*. М.: Финансы и статистика, 2003. 341 с.; Ефимова Н.П. *Государственный финансовый контроль в реализации федеральных целевых программ*. М.: Медицина, 2000. 198 с.; Ефимова Н.П. *Государственный финансовый контроль: вопросы теории и современное состояние*. М.: Финансы и статистика, 1999. 108 с.; Ефимова Н.П. *Методологические основы государственного финансового контроля*. М.: Экономика, 2001. 114 с.

⁵⁶ Пардаев И.Г. *Совершенствование таможенно-тарифной политики в увеличении бюджетных поступлений в Узбекистане*: автореф. дис. доктора философии (PhD) по экономическим наукам. Ташкент, 2025. С. 5–8; Алимбаев С.А. *Организационно-правовые проблемы товарообмена на таможенной территории Республики Узбекистан*: дис. на соискание учёной степени канд. экон. наук. Ташкент, 2003. 181 с.; Арипов С. *Совершенствование регулирования внешней торговли посредством таможенных платежей*: автореф. дис. на соискание учёной степени канд. экон. наук. Ташкент, 2009. 24 с.; Боймурадов Ш.Н. *Организационно-правовые формы государственного управления в таможенной сфере*: дис. на соискание учёной степени канд. юрид. наук. Ташкент, 2006. 161 с.; Турапов Р.А. *Основные направления повышения эффективности таможенной деятельности Республики Узбекистан*: дис. на соискание учёной степени д-ра экон. наук. Ташкент, 2006. 283 с.

